

# KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI!

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 249 (1310), 2024-yil 7-dekabr, shanba



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news



## FAOL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA ENERGIYA QUVVATLARINI OSHIRISH MAMLAKAT IQTISODIY SALOHİYATINI YUKSALTIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-dekabr kuni Toshkent viloyatiga tashrif buyurib, transport, energetika va turizm sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli loyihalar bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari dastlab “Toshkent — Xo‘jakent” yo‘nalishida yangi elektropoyezdni ko‘zdan kechirdi.

Prezidentning o‘tgan yil 10-oktabrdagi qaroriga muvofiq, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati transformatsiya qilinmoqda. Jamiyat tarkibida infratuzilma, vagon xizmati, yo‘lovchi tashish kabilar bilan shug‘ullanuvchi 6 ta mustaqil korxonaga ish boshladi.

Poyezdlar parki ham kengaytirilmoqda. Ayniqsa, yo‘lovchi tashishda aholi va turistlarga qulayliklar oshirilmoqda. Yangi poyezdlar

olib kelindi. Toshkentdan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarimizga “Afrosiyob” elektropoyezdlarining qatnovlari ko‘paytirildi.

O‘tgan davrda yurtimizda 3 ming kilometrdan ziyod temir yo‘llar elektrlashtirildi. Buxoro — Urganch — Xiva temir yo‘li tarmoqlarini elektrlashtirish yakuniy bosqichda. Misken — Nukus yo‘nalishida jadal davom ettirilmoqda. Toshkent atrofida ham elektrlashgan yo‘l qurilib, poyezdlarni o‘tkazish imkoniyati 30 foizga oshdi.

Endi “Toshkent — Xo‘jakent” yo‘nalishida yangi elektropoyezd qatnovga qo‘yilmoqda. Davlatimiz rahbari ushbu poyezdga chiqib, harakatlanishi va qulayliklarini ko‘rdi.

Vagonlar shinam va yorug‘, yo‘lovchilar uchun qulay. O‘rindiqlar soni 586 ta. Ma‘lumot tablolar va yong‘in xavfsizligi tizimi o‘rnatilgan. Poyezd soatiga 120 kilometrgacha tezlikka chiqqa oladi. Har bir tarafga kuniga uchtdan qatnov yo‘lga qo‘yiladi.

Safar chog‘ida davlatimiz rahbari temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, yo‘lovchilar

uchun sharoitlarni yaxshilash, temir yo‘llarni elektrlashtirish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha mutasaddilarning hisobotlarini tingladi.

Toshkent va Xo‘jakent oraliq‘idagi temir yo‘lga tutash maydonlarni 2025-yilgi renovatsiya dasturiga kiritib, ularni tartibga keltirishga ko‘rsatma berildi. Yo‘nalishdagi egri qismlarni to‘g‘ri qilib qayta qurish orqali kunlik ekspress poyezdlar qatnovini ko‘paytirish va ko‘proq yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun sharoit yaratish topshirildi.

“Yashil makon” loyihasi doirasidagi ishlar ham muhokama qilindi. Temir yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirish, suv resurslari cheklangan hududlarda xorijiy tajriba asosida qurg‘ochilikka chidamli o‘simliklarni ekish, chet eldan faqat mahalliy iqlimimizga mos bo‘lgan ko‘chatlarni keltirish zarurligi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumaniga tashrif buyurib, bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Xushmanzara tog‘lar bag‘ridagi bu hududning drayveri, albatta, turizm. So‘nggi yillarda infratuzilma yaxshilanib, yilning barcha faslida maroqli hordiq chiqarish imkoniyati yaratildi. Dam olish, sog‘lomlashtirish, chang‘i, sayohat, umumiy ovqatlanish majmualari barpo etildi. Eski sanatoriy va bolalar oromgohlari yangilandi.

Xususan, besh yil avval tumanda 2 ming 240 o‘rinli 26 ta maskan bo‘lgan bo‘lsa, shu davrda sohaga 2 trillion so‘mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ko‘p o‘ringa ega 59 ta yirik turizm inshooti ishga tushirildi. Asosiy avtomobil yo‘li ta‘mirlanib, qo‘shimcha yo‘llar qurildi.

Bularning natijasida turizm jadal rivojlandi, tashrif buyuruvchilar 12 barabarga oshdi. Jumladan, besh yil oldin Bo‘stonliqqa yiliga 850 ming sayyoh kelgan bo‘lsa, bu yil 11 oyning o‘zida 12 million nafar tashrif buyurgan.

Davomi 2-betda

## STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YANADA KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-dekabr kuni telefon orqali muloqotda Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadiq Japarovni tavallud kuni bilan samimiy qutladi.

Davlatimiz rahbari Qirg‘iziston yetakchisiga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlar, qardosh qirg‘iz xalqiga esa farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Yil boshidan buyon tovar ayiriboshlash hajmi 700 million dollardan oshdi. Qo‘shma

investitsiya fondi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda, mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Hududlararo va ishbilarmonlik aloqalari, madaniy almashinuvlar faollashdi.

Energetika va transport sohalarida yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalarini jadallashtirish muhimligi qayd etildi. Shu oyda Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish bo‘yicha loyihani boshlash mo‘ljallangan.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston Prezidentlari Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar va bo‘ljak qo‘shma tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘ZA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

### “G‘ELON” TURISTIK-REKREATSION ZONASINI VA XALQARO UMUMMAVSUMIY KURORTNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Respublikaning turistik salohiyatini oshirish bo‘yicha islohotlarni izchil davom ettirish, tog‘ va tog‘oldi hududlardagi ishga tushirilmagan mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga ekologik turizm infratuzilma obyektlarini barpo etish, shuningdek, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish orqali tog‘li va chekka hududlardagi aholi bandligini ta‘minlash, ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida:

1. Quyidagilar:  
Qozon shahrida (Rossiya Federatsiyasi) 2023-yil 4-6-oktabr kunlari bo‘lib o‘tgan III hududlararo hamkorlik forumi doirasida

Rossiya tomoni bilan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida “G‘elon” xalqaro umummaavsumiy kurort majmuasini tashkil etish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Investitsiya loyihasi) amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishilganligi;

Investitsiya loyihasi doirasida investor tomonidan Investitsiya loyihasini amalga oshirish davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni o‘z zimmasiga olgan holda dastlabki baholash bo‘yicha jami 300 million AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishi;

Davomi 2-betda

## INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida

“Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni avf etish to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan 483 nafar shaxs avf etildi.

Afv etilgan shaxslarning 107 nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, 275 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 7 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 94 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning 25 nafari chet el fuqarolari, 32 nafari inson, 5 nafari 60 yoshdan oshgan erkaklar, 274 nafari yoshlar (shulardan, 104 nafari voyaga yetmaganlar) hamda 6 nafari taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan avf etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish yuzasidan mas‘ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

## YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYAMIZ CHINAKAM MA‘NODAGI VATANNOMADIR

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Parlament a‘zolari, vazirlik va idoralarda mas‘ullari, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etgan tantanalı tadbir avvalida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigini Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Qayd etilganidek, bu yilgi Konstitutsiya bayramining alohida ruhi va shukuhini barcha yurtodoshlarimiz o‘z hayotida chuqur his etib, anglab turibdi. Zero, asosiy g‘oyasi inson

huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, sha‘ni va qadr-qimmatini ta‘minlash, ilgari mavjud bo‘lgan “davlat — jamiyat — shaxs” paradigmasini “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o‘zgartirishdan iborat yangi tahrirdagi Konstitutsiya yurtodoshlarimizning umumiy maqsadlari, intilishlari, orzu-umidlarini o‘zida jo ayladi.

Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrlı vatandoshlar!

Avvalo, ushbu qutlug‘ ayyomda siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakkob etaman.

Hech shubhasiz, bu yilgi Konstitutsiya bayramining alohida ruhi va shukuh borligini bugun barchamiz chuqur his etib, anglab turibmiz. Bu, birinchi navbatda, mazkur ayyomning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotimizda katta o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan tarixiy bir sharoitda o‘tayotgani bilan bog‘liq, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Ayniqsa, shu yil 27-oktabrda Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga ochiqlik va raqobat ruhida o‘tgan saylovlar yangilangan Asosiy qonunimizni hayotga tatbiq etish yo‘lida g‘oyat muhim qadam bo‘lganini yana bir bor ta‘kidlash lozim.

Mehnatkash, olijanob va bag‘rikeng xalqimizning Yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lidagi xohish-irodasi, birligi va hamijhatligi, siyosiy madaniyati yaqqol namoyon bo‘lgan ushbu saylovlar natijalariga ko‘ra, yurtimizda konstitutsiyaviy huquq va vakolatlari kuchaygan, mas‘uliyati bir necha karra ortgan yangi vakillik tizimi shakllangan albatta barchamizni mamnun etadi.

Yana bir muhim jihati — hokimlar bir paytning o‘zida mahalliy Kengashlarga ham rahbarlik qilib kelgan amaliyotdan ushbu organlarga ilk bor deputatlar orasidan saylangan Kengash raisi boshchilik qiladigan yangi tizimga o‘tilmoqda.

Bundan tashqari, hokimlarning 30 dan ziyod vakolatlari mahalliy Kengashlarga o‘tkazilgani ijtimoiy hayotimizda demokratiya, xalqparvarlik tamoyillari tobora keng o‘rin oloyatganidan dalolat beradi.

Biz “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy prinsipga amal qilgan holda, parlament va mahalliy Kengashlar vakolatlarini kengaytirish, ularning faolligini yanada oshirish, samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, bir so‘z bilan aytganda, ularni chinakam xalq ovozig‘a aylantirishga qaratilgan islohotlarimizni qat‘iy davom ettiramiz.

Hurmatli do‘stlar! Inson qadrlini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha Asosiy qonunimizda muhrlab qo‘yilgan ustuvor tamoyillarni hayotimizga izchil tatbiq etish borasida yurtimizda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan so‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sgani, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 3 ming dollarga yetgan, kambag‘allik darajasi 23 foizdan 11 foizga tushgani, maktabgacha ta‘limda qamrov 74 foizdan, oliy ta‘limda esa 39 foizdan oshgani, hech shubhasiz, tarixiy natijadur.

Islohotlarni jadal davom ettirib, yangilangan Konstitutsiyamiz normalarni hayotga tatbiq etish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish, shu asosda aholi daromadlarini oshirish, oila va mahallalarda o‘zaro hurmat va ahilik muhitini mustahkamlash, keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi bundan buyon ham e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Shuningdek, Asosiy qonunimizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilanganidan kelib chiqib, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yangi uy-joylar, tibbiyot, ta‘lim, madaniyat, san‘at va sport maskanlarini barpo etish, yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, manzillı ijtimoiy himoyani kuchaytirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Jumladan, sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 2 barobar ko‘paytirilib, tibbiy

sug‘urta tizimiga o‘tish va aholini kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq ta‘minlash ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Ta‘lim sohasidagi dasturlarimiz doirasida yaqin yillarda oliygohlarda qamrov 50 foizga yetkaziladi. Birgina 2025-yilda bog‘cha va maktablarni ta‘mirlash va yangilarini qurish uchun davlat byudjetidan 4 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Yana bir muhim yo‘nalish — aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanib, 1 million fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish rejalashtirilmoqda.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiylashuvini oshirish va umuman jamiyatimizda inklyuzivlikni ta‘minlash bo‘yicha ishlar ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Pensiya tizimini isloh etish bo‘yicha ham zarur choralar ko‘riladi.

Ma‘lumki, yangilangan Bosh qomusimizda fuqarolarning ekologiya sohasidagi huquqlari konstitutsiyaviy darajada belgilanib, davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan majburiyatlar alohida mustahkamlab qo‘yildi.

Kirib kelayotgan 2025-yilni mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilganimiz va bu borada katta vazifalarni aniq belgilab olganimiz ana shu konstitutsiyaviy qoida va prinsiplarni amalga oshirish uchun muhim asos bo‘ladi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, siz, aziz yurtodoshlarimiz, butun xalqimizni ushbu yil bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Hech qachon unutmaylik: tabiatni asrash — bu insonni, kelajakni asrash demakdir. Behoboyligimiz bo‘lgan serhosil dalalarimiz, zilol buloqlarimiz, daryo va ko‘llarimiz, tog‘ va adirlarimizni asrab, bog‘u rog‘lar, yashil maskanlarni ko‘paytirib, O‘zbekistonimiz yanada go‘zal diyorga aylanadi, avlodlarga bizdan ozod va obod Vatandoshlar!

Aziz va muhtaram yurtodoshlar! Konstitutsiyamiz mamlakatimizda milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlik, millatlararo do‘stlik va hamijhatlikni saqlash, islohotlarimizning ortga qaytmas tus olishini ta‘minlashda doimo ishonchli kafolat bo‘lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo‘lib qoladi.

Shu ma‘noda, xalqimizning huquqiy tafakkuri, xohish-irodasining yorqin timsoli va amaliy ifodasi bo‘lgan Asosiy qonunimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu noyob qomusning har bir moddasi va qoidasini o‘rganish, ularga hurmat, mehr va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lib, to‘laqonli ijro etish barchamiz uchun muqaddas burch va mezonaga aylinishini istardim.

Aminmanki, ana shunday yuksak mas‘uliyat bilan asostoyid mehnat qilib, islohotlarimiz samarasini yanada oshiramiz va oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarga albatta yetamiz.

Siz, aziz yurtodoshlarimiz Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzuz baraka tilayman.

Vatanimizning obro‘-e‘tibori, shonu shuhrati ziyoda bo‘lsin!

Barcha yutuq va g‘alabalarimizning ijodkori bo‘lgan xalqimiz omon bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## 8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

**O‘ZBEKISTON — DUNYOVIY DAVLAT**

Konstitutsiyamizda belgilangan besh asosiy tamoyil — SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIIY VA DUNYOVIY davlat maqsadlarining beshinchi tahlili

3



O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi.

## 8-DEKABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

# O'ZBEKISTON — DUNYOVIY DAVLAT

Konstitutsiyamizda belgilangan besh asosiy tamoyil — SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOYIY va DUNYOVIY davlat maqsadlarining beshinchi tahlili

**Boboravshan G'oziddinov,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" gazetasining o'tayotgan haftada chop etilgan maxsus sonlari bosh qonunimizga bag'ishlandi. Ularda mamlakatimizning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat sifatidagi ahamiyati, bu boradagi tub o'zgarishlar haqida qator maqolalar e'lon qilindi. Bugun "O'zbekiston — dunyoviy davlat" tamoyilida qanday o'zgarishlar bo'layotgani, buning hayotimizdagi ahamiyati haqida fikrlashmoqchimiz. Zero, dunyoviy davlat tamoyili kelajak kafolatidir.

Yangi O'zbekiston islohotlarning ilk kunidan oq inson qadri ulug'lashdek ega maqsad bilan taraqqiyot yo'lini tanlagan edi. Agar baxt formulasi yaratilishi kerak bo'lsa, u inson qadri atrofida quriladi. Axir qadr topmagan inson boshqa hech narsaga erisha olmaydi. Ana shunday hayotbaxsh g'oya asosidagi dastlabki o'zgarishlar bizni Uchinchi Renessans poydevorini qo'yishdek ulkan marralar sari yetakladi. Bugun yangi uyg'onish davrining asoslari yaratilmoqda. Ushbu jarayonda Bosh qonunimizda "O'zbekiston — dunyoviy davlat" degan tamoyil o'z ifodasini topishi hal qiluvchi masaladir. Nega dunyoviy davlat tamoyilini taraqqiyotning o'q ildizi sifatida ko'rsataymiz? Keling, buni atroflicha tahlil etishga urinsak.

### Turfa qarashlarning yagona qiyofasi

Inson doim baxt izlab yashaydi. Yuqorida aytganimizdek, baxtning formulasi inson qadriga bog'liq. Jamiyatlar esa, turfa qarashlar, e'tiqodlar, turli millat va elatlardan iborat. Xususan, O'zbekiston ham. Ularning har biri baxtni faqat o'z qarashi, mafkurasi, e'tiqodi asosida qurish mumkin deb biladi va bu tabiiy hol. Notabiiylik shundaki, mutlaq erkinlik yoki butunlay cheklovlar ana shu turfa qarashga toqatsizlikni keltirib chiqaradi. Oqibatda butun jamiyatni bitta qoligga solish, yagona mafkura asosidagina baxtli bo'lish mumkin, degan qarash avj oladi. Bu esa nizolarga sabab bo'ladi. Qaysidir toifa g'oyasi ilgari surilib, boshqalarning huquqi, qadri yerga uriladi.

O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida bunday nizolarga barham beradigan yo'lni tanlagan. Ya'ni mavjud qonunlar barcha uchun teng ravishda vijdon erkinligini ta'minlaydi. Shu orqali jamiyatda birdamlik, turfa qarashlarga ega fuqarolarning yagona maqsad — mamlakat taraqqiyoti, degan g'oya atrofida birlashishi ta'minlanmoqda. Bunda "Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan shior yo'lchi yulduz bo'lyapti.

Insoniyat tarixidan yaxshi ma'lum: birdamlik yo'qolishi, mafkuraviy kurashlar ulkan mamlakatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan. Hozirgi global dunyoda mafkuraviy xurujlar ko'lami qancha keng ekan, uning yananchi oqibatlariga ortiqcha ta'rif berish shart emas. Ammo barchaga ayon bir haqiqatni takrorlash zarur: bugun mafkuraviy xurujlar, yoshlarning ongu shuurini egallash orqali tinchlikka ramxa solib, dunyoga yakkahokimlik qilish istagi har qachongidan kuchaydi.

Agar qaysidir mamlakatning muammosi iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lsa, uni hal etish mumkin. Chunki iqtisodiyotda aniq raqamlar

ishlaydi va bunday masalaga yechim topish oson. Hatto chegara masalasida ham kelishish mumkin ekanini yangi O'zbekiston misolida ko'rdik. Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona munosabatlarni o'rnatilishi orqali chegara bilan bog'liq masalalar ham yechim topdi. Umuman, bu boradagi ulkan islohotlar fonda Markaziy Osiyo ruhi paydo bo'ldi.

Ammo mafkuraviy xurujlarga chap berish, bunday sinovdan omon o'tish oson emas. Buning yagona yo'l — dunyoviy davlat tamoyillarini mahkam ushlab, shu asosda siyosat yuritib,

### Ilmiy, iqtisodiy yuksalish hur fikrdan quvvat oladi

Maqolamiz avvalida dunyoviy davlat tamoyili kelajak kafolati ekanini haqida aytgan edik. Endi ushbu fikrimizni asoslash uchun tarix va bugungi kunimizni qiyoslab, tahlil etsak. Yuqorida dunyoviy davlat tamoyillari haqida fikrlashdik. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda dunyoviy davlat tamoyilini adolati tarzda qaror toptirish oson emas. Ammo bu

bo'lib ulg'aygan edi. Asosiysi, bunday jamiyatda vatanparvarlik hissi ham zaif bo'ladi. Masalan, bosqinchilar qishning sovuq'ida Amudaryoni kechib o'tishda, oziq-ovqat borasida qiyalanganida mahalliy aholi favqulodda mehribonlik bilan ularga yordam bergani haqida faktlar bor. Shuning o'ziyoq mamlakat, millat taqdiriga befarq jamiyat shakllanib ulgurani ko'rsatadi. Buning omili esa jamiyatda birdamlikning, farovon hayotning yo'qligi bilan bog'liq.

Shu bois, istilochilar osongina yurtimizga va barcha boyliklarimizga egalik qildi. Albatta, jaddidlar to'g'ri yo'lni topgan, shu orqali yurtini ozod qilish yo'lida dadil qadamlar tashlagan edi. Ammo jamiyatda birdamlik yo'qligi, xalq yagona vatan bo'lib shakllanmagani, iqtisodiy zaiflik o'z ishini ko'rsatdi. Shu dalilning o'ziyoq dunyoviy davlat tamoyili taraqqiyotning o'q ildizi ekanini tasdiqlaydi. Chunki ilmsiz iqtisodiy o'sishga, hur fikr yuritmay, barchani o'zi bilan teng inson deb bilmay ilgira erishib bo'lmaydi.

Yangi O'zbekistonda ajdodlar merosiga jiddiy e'tibor qaratilib, xalqaro darajadagi festivallar, ilmiy anjumanlar o'tkazilishining boisi ham shunda. Biz shonli tariximizga, boy madaniy merosimizga munosib avlodlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunda jaddidlar merosini o'rganishga katta

borasida tub o'zgarishlar qilindi. Bir paytlar armiya biz uchun mutlaqo yopiq qo'rg'on edi. Hozir undagi shart-sharoitlar, texnik imkoniyatlar ochiq eshiklar kuni, omamviy harbiy chiqishlar orqali namoyish etilmoqda. Shu orqali armiya tom ma'nodda xalq ichiga kirib bordi. Bunday o'zgarishlar nafaqat yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirmoqda, balki jamiyatda erangi kunga ishonchni ham mustahkamlamoqda.

**Yana bir muhim omil iqtisodiy farovonlikdir.** Ko'pgina masalalarga yechim bo'ladigan iqtisodiy yuksalish mamlakat suverenitetini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi o'sishlar ham kishini quvontiradi. Xususan, iqtisodiyotimiz 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. E'tibor qiling, 2018-yilda aholi jon boshiga daromad 1600 dollar edi. Hozir 3000 dollarga yetishi kutilyapti. Bu aholining turmush tarzida yaqqol ko'zga tashlanadi. Oddiy misol: bundan uch yil oldin ham shahar ko'chasi tungi soat 12:00 dan keyin huvillab qolardi. Tongda soat 7 da ko'chaga chiqsangiz ham shu ahvol edi. Hozir deyarli 24 soat davomida ko'chalarda tirbandlikka duch kelasiz. Bu faqat aholining ko'payishi bilan bog'liq emas. Deyarli barcha xonadonda shaxsiy mashina bor, degani. Jahon banki ham 2024-yilda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e'tirof etdi.

**Ikkinchidan,** demokratik, huquqiy davlat sifatida fikr erkinligiga keng yo'l ochildi. Fikr erkinligi haqida so'z ketganda odatda qancha omamviy axborot vositalari faoliyat yuritayotganini aytamiz. Ammo ular qanday chiqishlar, fikrlarni o'rta taqashlayotgani haqida ko'p ham so'z yuritilmaydi. Axir demokratiyaning asoslaridan biri — fikr erkinligi! Fakt shuki, bugun ijtimoiy tarmoqlarda ham barcha o'z fikrini qonun doirasida bildirmoqda. Jamiyatda fikrlar, qarashlar xilma-xilligi shakllanmoqda. Matbuotda, xususan, "Yangi O'zbekiston" gazetasi va uning rasmiy veb-saytida ham tahliliy-tanqidiy maqolalar berib borilyapti. Bu ham mamlakatimizda to'rtinchi hokimiyatning mustaqilligini ta'minlash, demokratik tamoyillarni to'la shakllantirish sari dadil borilayotganini ko'rsatadi.

Huquqiy davlat sifatida ham yurtimizda juda ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Oddiy misol: yurtdoshlarimiz murojaat qilish huquqidan to'la foydalanish imkoniga ega bo'ldi. Aholi murojaatlari bilan ishlash, ularga davlat xizmatlarini ko'rsatishda mutlaqo yangi tizim yaratildi. Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan da'vat bilan boshlangan islohotlar hayotda o'z ifodasini topdi. Buning natijasida juda ko'plab insonning hayoti tubdan o'zgardi. Aynan inson huquqlari kafolatlanishi tufayli nohaq qamalgan, jazoga tortilganlar odatiy hayot tarziga qaytarildi. Qamoqqa olish, tergov qilish jarayonlari o'zgardi. Masalan, davlat tomonidan gumondorga yuridik xizmat ko'rsatish kafolatlandi. Davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati tubdan o'zgardi. Masalan, bir paytlar pasport almashirish uchun kunlab navbat kutib, hujjat topshirilardi. Bunday qiyinchilik va sun'iy to'siqlar tanish-bilishchilik va "oldi-berdi"ga zamin yaratardi. Hozir onlayn ariza topshirish, pasportni pochta xizmati orqali olish ham mumkin. Hatto zarurat tug'ilganda bu xizmat xonadonga borib ham ko'rsatilmoqda. Bunday misollarni uzok sanash mumkin. Muddao shuki, xalqimiz o'z hayotida ijoiy o'zgarishlarni eranga yoki uzok kelajakda emas, huquqiy davlatning fuqarosi o'laroq aynan bugun ko'ra boshladi.

**Uchinchidan,** yangi O'zbekiston ulkan marralarni zabt etishda ijtimoiy davlat tamoyiliga amal qilish yo'lidan bormoqda. Natijada ortga qaytmis tus olgan islohotlarning hayotbaxshligi ta'minlanayapti. Biz ijtimoiy davlat qanday bo'lishiga ortiqcha ta'rif berishdan yiroqmiz. Ammo bu borada boshlangan ishlar natijasi, mohiyati haqida kengroq to'xtalsak. Chunki yuqorida aytganimizday jamiyatda vatanparvarlik

ruhi yuksak bo'lishi ijtimoiy adolatga bog'liq.

Odatda biron tamoyil, islohot avval qonunlarda o'z aksini topib, keyin amaliyotga tatbiq etiladi. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyiliga o'tish dastlab amaliy ko'rinishdan qonunni asos sari borildi. Ya'ni bu boradagi tajribamizni oshirib, mustahkamlab, shunga munosib tarzda qonunni asosga o'tdik. Xususan, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasidayoq ijtimoiy sohani rivojlantirish belgilangan, shu bilan birga inson kapitalini rivojlantirish borasida ham vazifalar ko'rsatilgan edi. Natijada oliy ta'limga qamrov yil sayin oshirib bordi. Ta'limga barcha bosqichida raqobatni ta'minlash orqali sifat ko'rsatkichini ko'tarish borasida ham juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Xususi sektoriga keng yo'l ochildi. Natijada o'tgan davrda 25 mingdan ziyod xususiy bog'icha, 70 ga yaqin nodavlat oliyog'ush tashkil etildi. Shu tariqa maktabgacha ta'lim qamrovi 74 foizdan, oliy ta'limga esa bu ko'rsatkich 39 foizdan oshdi. Islohotlarning dastlabki davrida inson kapitalini yuksaltirishga qaratilgan ishlar shu tariqa amaliy qiyofa kasb etdi.

**Yana bir muhim yo'nalishtirish, moddiy ta'minot masalasidir.** Bu borada ham ijtimoiy adolati boshqaruv ekanini hayotimiz misolida ko'rdik. Bu adolat insonlarning jismoniy, ma'naviy va moddiy holatidan qat'i nazar, barchaga birdek imkoniyat yaratish ekaniga guvoh bo'lyapmiz. Ijtimoiy adolat o'rnatish orqali barchaning orzumuylariga keng yo'l ochildi.

Sodda va lo'nda qilib aytganda, ijtimoiy davlat degani xalqparvarlik, insonparvarlikka yo'g'rilgan adolati boshqaruv ekanini hayotimiz misolida ko'rdik. Bu adolat insonlarning jismoniy, ma'naviy va moddiy holatidan qat'i nazar, barchaga birdek imkoniyat yaratish ekaniga guvoh bo'lyapmiz. Ijtimoiy adolat o'rnatish orqali barchaning orzumuylariga keng yo'l ochildi.

Maqolamiz davomida dunyoviy davlat tamoyili taraqqiyotning o'q ildizi ekanini bot-bot takrorladik. Buning ahamiyati va mazkur qarash bizning genimizda borligini ham imkon qadar isbotlashga urindik. Agar tariximizda bu borada orqaga ketish kuzatilgan bo'lsa, u ham tabiiy jarayondir. Chunki gendagi kodlar ayrim sabablar tufayli vaqti-vaqti bilan "dam olish"ga moyil bo'ladi. Bugun ana shu kodlar yana qonimizda jo'sh urmoqda. Bobolardan meros bunday e'zgu tashabbuslar, hayotbaxsh islohotlarni esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muhrlab qo'yganmiz. Buning ahamiyatini, hayotimizdagi aksini gazetamizning o'ziga xos konstitutsiyaviy haftaligida e'lon qilingan maqolalarda ochib berishga urindik.

Ta'kidlanganiday dunyo siyosiy maydonida keskin o'zgarishlar, ikki xil standartlar avj olgan. Shunday paldada yangi O'zbekiston — tinchlik elchisi, deya e'tirof etilayotgani bejiz emas. Chunki mamlakatimiz ichki siyosatdagi tub o'zgarishlarni ayni formatda tashqi siyosatda ham keng targ'ib etmoqda. Birgina misol, so'ngi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan BMTning xalqaro miqyosdagi 11 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Qonunlar amal qilingan vaqtidagina yashaydi, degan fikr bor. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi ulug' ajdodlardan meros bo'lgan umuminsoniy g'oyalarni, e'zgu fikrlar bilan boyitilgan. Bunday qonun ortga qaytmis tus olgan islohotlarga quvvat beradi. Jamiyatni bir butun xalq, yagona Vatani qilib shakllantiradi.



xalq birdamligini ta'minlash. Bugun yangi O'zbekiston dunyoda tinchliksevar mamlakat sifatida e'tirof etilayotgani dunyoviy davlat tamoyilining amaldagi ifodasidir. Xususan, yurtimizda millatlararo munosabatlarda davlat siyosatining asosiy maqsadlari aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha fuqaro birdek huquq va erkinliklarga ega. Ularning qonun oldida tengligi ham ta'minlangan. Bundan tashqari, yurtimizda turli millat va elatlarning tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinadi. Mana shuning o'ziyoq yuqorida aytganimiz barcha masalalar yechimining o'q tomidir. Chunki mazkur amaliy ishlar sabab jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, jipslik, insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyati mustahkamlangan. Shu orqali millatchilik va shovinizmga, fuqarolarning millatiga qarab kamsitilishiga hamda Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu esa jamiyatda olijanob g'oya — mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlantirish, davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlashga erishishda juda muhim faktor.

Dunyoviy davlat asosini esa har tomonlama yetuk, salohiyatli kadrlar, tafakkuri keng yoshlar tashkil etadi. Shu bois, yashalarimizni milliy g'urur, umumbaxshiy qadriyatlariga hurmat hissida kamol toptirishga qaratilgan siyosat yuritilmoqda. Buni ilm-fanga katta e'tibor berilayotganida ham ko'rishimiz mumkin. Bu orqali yoshlarni daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, zamonga mos ravishda IT texnologiyalar, ma'naviyat, san'at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun barcha imkoniyat ishga solinmoqda. Bundan tashqari, jaddidlar ilmiy merosini o'rganish, nomini abadiylashtirish, o'lmas g'oyalarni keng targ'ib etishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Negaki bunday islohotlar bilangina inson kapitalini yuksaltirish mumkin. Yana takrorlaymiz: bu — o'q tomir. Shu bois, davlatimiz rahbari: "Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma'naviyat. Buni bizi buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi", degan edi.

Keling, bag'rikenglik, o'zaro totuvlik, vijdon erkinligining ahamiyatini tarixiy faktlar asosida tahlil etsak. Zero, tarix — kelajak ko'zgusi, unga boqib ibrat olish har bir farzandning burchidir.

O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida bunday nizolarga barham beradigan yo'lni tanlagan. Ya'ni mavjud qonunlar barcha uchun teng ravishda vijdon erkinligini ta'minlaydi. Shu orqali jamiyatda birdamlik, turfa qarashlarga ega fuqarolarning yagona maqsad — mamlakat taraqqiyoti, degan g'oya atrofida birlashishi ta'minlanmoqda. Bunda "Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan shior yo'lchi yulduz bo'lyapti.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

xalqimiz uchun begona ham emas. Ya'ni bunday adolati o'rnatilgan o'zgarishlar ham emas. Masalan, ulug' ajdodimiz Mirzo Bobur bunga yaqqol misol bo'ladi. U Hindistonga borganida o'lkada turfa elat, qabila yashar, har bir oilaga xos ilohi bor jamiyat shakllangan edi. Bobur esa butunlay boshqa din va qarash egasi edi. Ajdodimiz o'z dinini mukammal bilgan, bu borada hatto ilmiy asosdagi kitoblar yozgan alloma, shoh va shoir sifatida zukkolik bilan ish tutardi. Bobur hazratlari xalqimizga xos adolatga yo'g'rilgan dunyoviy davlatga asos soldi. Turfa qarash va mafkuraga ega jamiyat ma'rifat bilan boshqariladi va boburiy shahzodalarni buni uzok vaqt davom ettira oldi.

Endi yaqin o'tmishimizga qaytsak. Xonliklar davrida hududiy va iqtisodiy suvereniteti zaif, boshqaruvdagi aksariyati o'zini oliy ta'baqa deb bilgan bois, huquqiy, demokratik qarashlar bo'g'irilgan, buning oqibatida ijtimoiy zaif qatlam ko'payib, kambag'allik darajasi oshgan edi. Chunki xurofotga yo'g'rilgan dunyoqarash zamonaviy ilm-fanni o'zlashtirishga xalal berardi. Natijada yoshlarning aksariyati ilmdan uzog, tafakkuri tor

e'tibor berilayotgani ham bejiz emas. Aynan ular yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida yozilganiday yurtimizni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida ko'rishni orzu qilgan, shu yo'lida jonini fido qilgan edi. Xo'sh, ularga qanchalik munosib avlod ekanimiz jaddidlar orzu qilgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etishdagi islohotlar bilan o'lganida, nazariyam. Keling, tabir bo'lsa-da, ushbu yo'nalishtardagi o'zgarishlarning ayrimlarini eslasak.

**Birinchiidan,** davlat suvereniteti har jihatdan mustahkamlandi. Qo'shni davlatlar bilan chegara masalasi tubdan ko'rib chiqildi va tarixiy natijalarga erishildi. Bu hududiy yaxlitlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qolaversa, milliy armiyamizni nafaqat jismoniy va texnik, balki ma'naviy jihatdan ham yuksaltirish borasida jiddiy ishlar qilinmoqda. Masalan, "Temurbek maktabi"da yoshlarimiz milliy g'urur, umumbaxshiy qadriyatlariga hurmat hissida kamol topmoqda. Bundan tashqari, aholi orasida harbiy-vatanparvarlikni keng targ'ib etish

Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.  
O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidagina amalga oshiriladi.  
Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvotiy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi.**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz

## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

Bugun O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, iqtisodiy yuksalish va ulkan yangilanishlar maydoniga aylandi. Aholi turmush darajasi yuksalmoqda. Shaharlar va qishloqlar obod bo'lib bormoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha sohadagi keng ko'lamlil islohotlar nafaqat mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarmoqda, balki dunyoga yangi O'zbekiston modelini namoyon etmoqda.



**“Xalq davlat idoralariga emas, aksincha, davlat tashkilotlari xalqqa, uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi zarur.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# IJRO INTIZOMI – SAMARADORLIK OMILI



**Ilhom MAHKAMOV,  
transport vaziri**

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “inson qadri uchun” tamoyili asosidagi islohotlar samarasi bugun oddiy insonlar hayoti, kundalik turmushida, qo'yingiki, har bir kunimizda o'z aksini topmoqda.

Eng muhimi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida xalq davlat idoralariga emas, aksincha, davlat tashkilotlari xalqimizga xizmat qilmoqda. Buning zaminida davlat organlari va tashkilotlarning barcha bo'g'inida ijro intizomi bo'yicha yaratilgan o'ziga xos mexanizmlarning amaliy samarasi mujassam.

Prezidentimiz rahbarligida joriy yil 28-noyabr kuni ijro intizomi masalasida o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ijro intizomini yanada mustahkamlash hamda berilgan topshiriqlar ijrosini barvaqt, sifatli va to'laqonli bajarishga yana bir bor hammaning e'tibori qaratildi.

Ijro intizomi taraqqiyotga yetaklovchi muhim vositadir. Binobarin, mamlakatimizdagi islohotlarning natijadorligi bevosita ularni amalga oshirishga qaratilgan hujjatlar, qarorlarni ijro etish bo'yicha intizomning qat'iyiligi bog'liq. Aynan davlat idoralari va tashkilotlardagi ijro intizomi holatidan kelib chiqib, har bir tarmoqning rivojlanish darajasiga baho berish mumkin.

Shu bois, keyingi yillarda barcha soha hamda tarmoqlarda qat'iy tartib-intizomni ta'minlash bo'yicha huquqiy asoslar kuchaytirildi. Xususan, 2021-yil 10-fevralda davlatimiz rahbarining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni, 2021-yil 31-mayda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralara yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini



ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar davlat organlari va tashkilotlarida qat'iy intizom o'rnatish hamda tegishli sohalardagi ish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Transport tizimi mamlakatning yuzi va jahon bilan aloqalari bog'liqligini ta'minlaydigan ko'zgidir. Ushbu sohadagi ijro intizomi mamlakat taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini belgilab beradi.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimiz transport tizimi

jahon talablari darajasida faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmog'ida. Bu jarayonda asosiy vazifamiz — ijro intizomini ta'minlash, vazifamizga siddiqdildan yondashishdir.

Shunga ko'ra, Prezidentimizning mazkur farmon va qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda Transport vazirligi tizimida ijro intizomini yanada mustahkamlash bo'yicha bir necha yo'nalishda keng ko'lamlil ishlar bajarilmoqda. Xususan:

**Birinchil yo'nalishda** qonunchilik hujjatlari va tegishli topshiriqlar loyihalari tayyorlanishi ustidan shaxsiy nazorat o'tatilgan.

**Ikkinchi yo'nalishda** qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrochilarga tezkor yetkazilishi, jumladan, ularidagi vazifalarning mohiyati va ahamiyatini Transport vazirligi, tizim tashkilotlari va hududiy transport boshqarmalari xodimlariga tushuntirish, nazorat bandlari hamda topshiriqlarda aniq mexanizmlar, muddatlar, mas'ullar belgilanishi bo'yicha “yo'l xaritalari”, harakat rejalarini o'z vaqtida ishlab chiqilishi ustidan shaxsiy nazorat ta'minlandi.

**Uchinchi yo'nalishda** qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi amalda nazorat qilinishi shaxsan tashkil etilib, “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralara yagona elektron tizimida o'z vaqtida hisobot berilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**To'rtinchi yo'nalishda** qonunchilik hujjatlari, topshiriqlar o'z vaqtida, to'liq va natijali ijro etilishi, belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda mo'ljallangan maqsadlarga erishish shaxsan tanqidiy tahlil qilinmoqda.

Ushbu yo'nalishlardagi ishlar har bir rahbar va xodimdan shaxsiy javobgarlik hamda daxldorlik hissi to'liq anglagan holda o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishni ta'minlab, belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga xizmat qilmoqda.

Bugun vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar va xodimlarning qat'iy ijro intizomiga amal qilishi, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi bo'yicha KPI tizimi ishlab chiqilgan. Unda xodimlar o'ziga yuklatilgan vazifalarning natijadorligi asosida rag'batlantirib borilmoqda.

Shu bilan birga, ijro intizomini yanada mustahkamlashda zamonaviy axborot texnologiyalari va boshqaruvi uslublarini amaliyotga joriy etish, nazorat qilish hamda ijroni tekshirish shakllarini takomillashtirish muhim omildir.

Mazkur yo'nalishda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralara yagona elektron tizimi orqali elektron hujjat almashinuvi yo'lga qo'yilgan vazirlik tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tizim orqali har bir hujjat va topshiriq qisqa muddatda mas'ul ijrochilarga yetkazib beriladi, ularning ijro etilish holati real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Qolaversa, mazkur avtomatlashtirilgan tizim samarasi o'laroq, Transport vazirligi, tizim tashkilotlari va

hududiy transport boshqarmalarida hujjatlarni qog'oz shaklida kelishish hamda imzolash amaliyotiga chek qo'yilmog'ida.

Tizim orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjat va topshiriqlari, ularning bajarilish holati, muddati, tasdiqlash jarayoni kabi hisobotlarni ijrochilar bo'yicha shakllantirish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, ijroga yo'naltirilgan hujjatlarni elektron raqamli imzodan foydalangan holda maxsus mobil ilova orqali ko'rib chiqish, ijroga yo'naltirish va nazoratdan chiqarish imkoniyati yaratilgan. Bu vazirlik tizimida ish yuritishni sezilarli darajada tezlashtirish imkonini bermog'ida.

Vazirlik tomonidan O'zbekiston



Respublikasi qonunlari, Prezident hujjatlari va topshiriqlarini o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etish yuzasidan “texnologik zanjir” asosida Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi bilan birgalikda tizimli ishlar qilinmoqda.

Tahlillarga ko'ra, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida “Ijro.gov.uz” elektron tizimida nazoratga olingan, Transport vazirligi mas'ul bo'lgan jami 1012 ta hujjat va topshiriq ijrosi o'z vaqtida ta'minlangan.

So'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar samarasi tufayli aholi turmush darajasi va mobilligi keskin ortishi kuzatilmog'ida. Bu esa, o'z navbatida, aviaqatnovlarga talabning bir necha barobar o'sishiga sabab bo'ldi.

Ayni shu jihati inobatga olgan holda nafaqat viloyat markazlaridagi xalqaro aeroportlarni rivojlantirish, balki chekka hududlarda joylashgan, uzoq yillardan buyon fuqaro aviatashuvida foydalanilmay kelayotgan kichik aerodromlar faoliyatini qayta tiklashga alohida ahamiyat qaratilmog'ida.

Birgina joriy yilning o'zida Shahrisabz, Qo'qon va Zomin aeroportlari ishga tushirilib, Toshkent — Shahrisabz, Toshkent — Qo'qon, Toshkent — Zomin yo'nalishlarida aviaqatnov yo'lga qo'yildi.

Qolaversa, Buxoro, Andijon va Namangan xalqaro aeroportlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish ishlari boshlandi. Mamlakatimiz aviatsiya tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlar natijasida respublikamiz rezident aviakompaniyalari soni 17 taga (shundan 12 tasi xususiy) yetkazildi. 2024-yilning o'tgan davrida doir qo'shimcha 14 ta havo kemasi olib kelindi. Natijada milliy aviatsiya parkimizda havo kemalari soni 93 taga yetkazildi.

Joriy yilning 29-fevral kuni davlatimiz rahbari boshchiligidagi Xorazm viloyatini Qoraqalpog'iston bilan bog'lovchi, Amudaryo ustidan o'tgan “Shovot — Qorao'zak” yangi temir yo'l liniyasi va avtomobil yo'l qo'shma

ko'prigining foydalanishga topshirilishi mamlakatimiz transport tizimini rivojlantirishda ulkan voqea bo'ldi. Zero, mazkur loyiha amalga oshirilgunga qadar Amudaryo tumani aholisi avtomobilda Nukusga borish uchun Urganch va Beruniy orqali yurishga majbur edi. Buning uchun qo'shimcha 180 kilometr yo'l yurishga to'g'ri kelardi. Poyezdda esa Xorazmning sharq tomonidagi Hazorasap ko'prigidan o'tib kelinardi. Yangi ko'priki tufayli bu qiyinchiliklar barham topdi, xalqning uzog'i yaqin bo'ldi. U orqali Qoraqalpog'iston bilan Xorazmni bog'laydigan eng yaqin avtomobil va temir yo'l qatnovi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, ayni damda Buxoro — Urganch — Xiva temir yo'lini elektrlashtirish

qadar ta'mirlangan va modernizatsiya qilingan yo'lovchi vagonlari soni 245 taga, buning hisobiga yo'lovchi vagonlari parkining umumiy soni 505 taga yetkazildi. Natijada temir yo'l transportida yil yakuniga qadar 10 milliarddan ortiq yo'lovchi tashish prognoz qilinmoqda.

Avtomobil yo'llari tamog'i mamlakatning barcha hududini birlashtirib, hududiy yaxlitligini ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va aholining yashash sifatini oshiradi. Shu bois, mamlakatimizda avtomobil yo'llarini qurish, mavjud yo'llar tamog'ini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmog'ida. Xususan, yurimizni xalqaro transport tizimiga uyg'unlashtirish, mintaqa orqali tovarlarni tashish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mamlakat tranzit imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida yirik transport-kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilmog'ida.

Joriy yil 25-oktabr kuni ushbu yo'nalishdagi eng yirik loyihalardan biri Qo'ng'iro't — Beyneu avtomobil yo'lining yangidan qurilgan 240 kilometr qismining foydalanishga topshirilishi mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish, iqtisodiy tarmoqlarining barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Ushbu loyiha mamlakatimizning “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan jahon transport-logistika tarmoqlariga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish va milliy transport tizimi salohiyatini oshirish maqsadlariga erishishga qaratilgan. Mazkur yo'lining foydalanishga topshirilishi natijasida yo'l ta'kazuvchanligi kuniga o'rta 4

mingdan 13 mingga oshirildi

hamda yo'ldagi vaqt sarfi 2,5 barobar tejalishga erishildi.

Yana bir muhim yo'nalish hududlarda jamoat transporti tizimini rivojlantirish bilan bog'liq. Jamoat transporti odamlarning uzog'ini yaqin qiladigan, aholi kayfiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan, xarajati va vaqtini tejaydigan vositadir.

Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida 2024-yilning shu davriga qadar hududlarda 365 dona zamonaviy avtobus xarid qilindi. Ular hududlarda brutto-shartnoma asosida yo'nalishlarga joylashtirildi. Xususan, Namangan shahri uchun Xitoyning “Yutong” kompaniyasidan yo'lovchilar uchun barcha qulaylikka ega, siqilgan tabiiy gazda ishlovchi 36 dona zamonaviy avtobus olib kelindi. Mazkur 36 ta avtobusning shahar ichidagi 3 ta yo'nalishga brutto-shartnoma asosida qatnovi yo'lga qo'yildi. Brutto-shartnoma tizimi orqali qatnovlar yo'lga qo'yilgunga qadar ushbu yo'nalishlarda bir kunda 9100 dan ortiq yo'lovchiga 15-20 daqiqa oraliq interval bilan jami 54 dona “Isuzu” rusumli kichik sig'imli

“YEVROPA TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKI MABLAG'I HISOBIDAN “YASHIL SHAHARLAR” DASTURI DOIRASIDA 30 DONA “YUTONG” RUSUMLI ELEKTROBUS XARID QILINDI. YIL YAKUNIGA QADAR YANA 64 TA ELEKTROBUS KELTIRILISHI REJALASHTIRILGAN.

ishlari nihoyasiga yetkazilmog'ida. Kelgusi yildan Miskin — Nukus temir yo'lini elektrlashtirish rejalashtirildi. Natijada Xiva hamda Nukus shaharlariga tezyurar poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi. Toshkent — Samarqand — Buxoro — Xiva yo'nalishida zamonaviy yo'lovchi poyezdlari qatnovini tashkil etish maqsadida Janubiy Koreyaning “Hyundai Rottem” kompaniyasidan yuqori tezlikdagi 6 ta elektropoyezd xarid qilish bo'yicha shartnoma imzolandi.

Yuqori tezlikdagi elektropoyezdlar harakati yo'lga qo'yilishi bilan Xorazm hamda Qoraqalpog'iston aholisining mamlakatimizning boshqa shaharlariga borib kelishi osonlashadi. Mazkur loyihalar hisobidan transport xarajati 2 barobar qisqarib, yo'lovchi tashish 30 foiz oshadi.

Temir yo'l transportida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida yo'lovchi vagonlari parkini yangilash masalasiga alohida ahamiyat qaratilmog'ida.

Joriy yil yanvar-noyabr oylarida yangi 30 ta yo'lovchi vagoni ishlab chiqarildi hamda 220 ta yo'lovchi vagoni ta'mirlandi. Yil yakuniga

avtobusda xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 36 dona zamonaviy avtobus yo'nalishlarga qo'yilishi orqali bir kunda 15 ming 300 dan ortiq yo'lovchiga 10-12 daqiqa oraliq interval bilan xizmat ko'rsatilishiga erishildi.

Farg'ona shahri uchun viloyatda yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan esa 48 dona “Yutong”, “Zhong Tong” va “Asia Star” rusumli avtobus sotib olindi. Ushbu yangi avtobuslar bugun shahar ichidagi 4 ta avtobus yo'nalishida harakatlanmoqda. Mazkur yo'nalishlarda ham yo'lovchilarga brutto-shartnoma tizimi asosida xizmat ko'rsatilyapti.

Urganch shahri jamoat transporti uchun “O'zmilliybank” AJning kredit mablag'i hisobidan Xitoyning “Zhong Tong” kompaniyasida ishlab chiqarilgan 50 dona zamonaviy avtobus xarid qilindi. Ushbu avtobuslar Urganch shahridagi 4 ta avtobus yo'nalishiga brutto-shartnoma asosida joylashtirildi.

Xarid qilingan avtobuslarning yo'nalishlarga joylashtirilishi orqali qatnovlarning oraliq vaqti 18 daqiqadan 10 daqiqaga qisqarib, bir kunlik qatnov soni 736 tadan 1024 tagacha oshirildi. Joriy yil oxirigacha ushbu rusumdagi avtobuslardan yana 30 tasi keltiriladi. Natijada shaharda 16 yo'nalishda 148 ta avtobus harakatlanib, har kuni 136 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Qarshi shahri uchun “Asia Star” rusumli 32 dona avtobus xarid qilindi, brutto-shartnoma asosida joylashtirilib, kunlik yo'lovchi tashish hajmi 3 barobar, oraliq interval esa 2 barobar qisqartirilishiga erishildi.

Samarqand shahrida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan zamonaviy 27 dona avtobus olib kelindi, shahar ichidagi 8 ta avtobus yo'nalishiga joylashtirildi. Mazkur yo'nalishlarda brutto-shartnoma asosida harakatlanish yo'lga qo'yilgandan so'ng avtobuslar oraliq intervali 25-30 daqiqadan 10-15 daqiqaga kamaydi.

Shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'i hisobidan “Yashil shaharlar”



dasturi doirasida 30 dona “Yutong” rusumli elektrobus xarid qilindi. Yil yakuniga qadar yana 64 ta elektrobus keltirilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizdagi islohotlar samarasi hayotimizda to'laqonli aks etishi, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha natijadorligi huquqiy-me'yoriy hujjatlarini ijro etish intizomining qay darajada qat'iyiligi bog'liq. Zero, ijro intizomi samarali yo'lga qo'yilishi, amaldagi qonunchilik hujjatlarining o'z vaqtida ijrosini ta'minlash bilan birga, hududlar va yo'nalishlar kesimida ham holatni yaqqol tasavvur va tahlil qilish imkonini beradi. Tizimli tahlil, o'z navbatida, sohadagi ayrim bo'shliqlar, islohot talab etadigan yo'nalishlarni namoyon etib, xalqimiz hayotini yanada yaxshilashga qaratilgan bo'lajak loyihalarni yaratishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Bu esa pirovard maqsadi xalqqa xolis xizmat qilish bo'lgan Transport vazirligi va uning quyi bo'g'inlari maqsadlarini ro'yobga chiqarish, yangi marralar sari aniq odimlashga keng yo'l ochadi.

Jamiyatimizda islohotlarni o'zida aks etgan hamda tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va ularning o'z vaqtida, samarali ijro etilishi mamlakat taraqqiyotini belgilash bilan birga, aholi hayotida farovonlikni ta'minlaydi.

**Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.**  
Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasi.**

# XALQIMIZ HAYOTINING AJRALMAS QISMI

Yangi O'zbekistondagi keng ko'lami islohotlar negizida har bir fuqaro o'zini erkin va himoyalangan his qiladigan, inson va uning huquqlari ustuvor bo'lgan adolati va insonparvar jamiyatni barpo etish maqsadi yotadi.

samarali monitoring o'rnatish imkonini beradi. Shuningdek, Senatning davlat organlarini shakllantirish jarayonidagi ishtiroki yanada kuchaytirilib, mazkur jarayonlarda senatorlarning mas'uliyati va nufuzi ortdi. Bu esa muhim qarorlarni qabul qilishda va davlat boshqaruvini rivojlantirishda ularning alohida ahamiyat kasb etishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mamlakatimizda qonun ustuvorligini mustahkamlash, iqtisodiyoti

aholining yuqori turmush darajasiga ega mamlakatlar qatoriga qo'shilishiga erishish vazifalari belgilab olindi.

Bundan tashqari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi Bosh qonunimizda muhim o'rin egalladi. Mahalla instituti O'zbekiston jamiyatining qadimiy va an'anaviy asoslariga tayangan holda hozirgi kunda ham demokratiyaning muhim elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangilangan Konstitutsiya mahalla organlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlab, ularning



**Abdulhakim ESHMURODOV,**  
Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mana shu o'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan. Mazkur hujjat davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari samaradorligini oshirish uchun mustahkam huquqiy asos, inson va uning manfaatlarini yanada samarali ta'minlanishiga zamin yaratadi.

Asosiy qonunimizda gender tenglik tamoyillariga alohida ahamiyat qaratildi, ayollar huquqlarini himoya qilish borasida

xalqaro standartlarga mos huquqiy asoslarni shakllantirish normalari nazarda tutildi. Yangi me'yorlar jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarda erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratildi. Bu o'zgarishlar gender kamsitishning har qanday ko'rinishlariga chek qo'yish va jamiyatda ayollar rolini mustahkamlash uchun muhim qadam bo'ldi.

Konstitutsiyaning yangi tahririda davlat tomonidan ayollarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qonunchilik tashabbuslari mustahkamlab qo'yildi. Masalan, davlat dasturlari ayollarni boshqaruv lavozimlariga tayinlashni, ularning tadbirkorlik faoliyatida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash va ta'lim sohasida ular uchun keng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi.

Konstitutsiyaviy islohotlar parlament o'zgarishlarni ham qamrab oldi. Yaqindagina mamlakatimizda parlament saylovi Konstitutsiyada belgilangan yangi normalarga tayangan holda o'tkazildi. Senat tarkibi sezilarli darajada ixchamlashtirildi, bu esa uning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga qisqartirilishi ularning faoliyatini yanada maqsadli va ta'sirchan qilishga imkon yaratadi. Ayni vaqtda ularning vakolatlari sezilarli ravishda kengaytirildi, bu esa mas'uliyatni bir necha barobar oshirdi.

Senat faoliyatidagi bu o'zgarishlar uning davlat boshqaruvidagi rolini yanada mustahkamladi. Xususan, yuqori palataning parlament nazorati funksiyalari kengaytirildi, bu esa davlat idoralari faoliyati ustidan



yanada isloh qilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, ayni davrda mavjud global muammolarga yechim topish va barcha jabhalarda boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish, tinchlik va xavfsizlikni barqaror ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi muhim masalalar qamrab olingan. Pirovardida O'zbekistonning erkinlik, imkoniyatlar tengligi, adolatlilik, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas'uliyat tamoyillari ustuvor bo'lgan kuchli ijtimoiy davlat sifatida

davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda ishlash mexanizmlarini takomillashtirdi.

Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari aniq belgilab berildi, bu esa hududlarni boshqarishda mas'uliyat va hisobdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy kengashlar hokimiyatning yanada samarali modeli sifatida shakllantirilib, ularning vakolatlari kengaytirildi. Bu, o'z navbatida, aholi manfaatlarini himoya qilish va hududiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim qadam bo'ldi. Endi mahalliy davlat

hokimiyati organlari o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarini hal etishda ko'proq mustaqillikka ega.

Ushbu yo'nalishda aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahalla institutining ahamiyati alohida qayd etildi. Mahalla jamoatchilik va davlat organlari o'rtasidagi "ko'prikl" sifatida ko'rib, uning faoliyatini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mahalla instituti fuqarolarning muammolarini joyida hal qilish, ijtimoiy adolati ta'minlash va aholining barcha qatlamlarini jamiyat hayotiga jalb qilishda muhim o'rin tutmoqda.

Keng ko'lami demokratik islohotlar tufayli O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilab bormoqda. Mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo'yicha 8 pog'ona, elektron hukumat bo'yicha 18 pog'ona, iqtisodiy erkinlik bo'yicha 49 pog'ona, logistika va innovatsiya bo'yicha 10 pog'ona yuqoriladi.

Bu muvaffaqiyatlar barchamizga katta kuch va ishonch bag'ishlaydi, albatta. Biroq erishilgan yutuqlarga qaramay, ushbu yo'nalishlarda hali bajarilishi lozim bo'lgan ishlar biyiyor. Xalqaro reytinglardagi o'rnimizni yanada yaxshilash, aholi farovonligini oshirish va jamiyatning

barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun bundan keyin ham izchil islohotlarni davom ettirishimiz zarur.

Konstitutsiyamizda muhrlangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish kelgusi faoliyatimizning asosiy ma'nomanamunini tashkil etishi, bu borada Konstitutsiyani hayotimizga tatbiq etish parlament faoliyatining bosh mezon bo'lishi kerakligi biz, parlament a'zolarining oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shuning uchun ham Konstitutsiyaning ahamiyatini xalqimiz o'rtasida keng targ'ib etish har birimiz uchun muhim vazifadir. Har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida qonunga hurmat, vatanga mehr va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlash bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Konstitutsiyamiz inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlagan holda har bir fuqaro o'zini jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida his qilishiga ko'maklashadi.

Bizning vazifamiz Konstitutsiya ustuvorligini ta'minlash, uni xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylantirishdir. Bu maqsad yo'lida hammaimiz birgalikda harakat qilishimiz, qonunlar ruhini jamiyatning har bir a'zosi his qilishiga erishishimiz lozim.

## Dolzarb mavzu

# MAMLAKATIMIZDA KONSTITUTSIYAVIY QONUNIYLIKNING HOLATI QANDAY?

**2024-yil 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis palatalari, hukumat, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, nodavlat notijorat tashkilotlar, ta'lim va ilmiy tashkilotlar vakillari hamda Konstitutsiyaviy sud ilmiy-maslahat kengashi a'zolari qatnashdi. Majlisda Konstitutsiyaviy sudning 2024-yilda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik holati to'g'risidagi axboroti ko'rib chiqildi.**

Konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash davlatchilikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning kelgusidagi konstitutsiyaviy rivojlanish yo'lini hamda xalq irodasiga asoslangan va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan zamonaviy o'zbek davlatchiligi asoslarini belgilab berdi.

Bosh qonunimizdagi norma va prinsiplarni hayotga tatbiq etish, shu jumladan, jamiyat va davlatni Konstitutsiyaga muvofiq huquqiy modernizatsiya qilish, konstitutsiyaviy qonuniylikni yanada mustahkamlash bo'yicha ishlar 2024-yilda ham faol davom ettirildi.

Konstitutsiyaviy sud axborotida Bosh qonunimizni amalga oshirish bo'yicha 15 ta yo'nalishda olib borilgan islohotlarga alohida to'xtalib o'tildi, xususan:

— hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining yangi konstitutsiyaviy konsepsiyasidan kelib chiqib, davlat organlarining faoliyati yangicha

konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yildi;

— siyosiy institutlar va vakillik hokimiyati organlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi;

— inson huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, shaxsning sudlanganligi uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligiga oid kafolatlar kuchaytirildi;

— davlatning kambag'allikni qisqartirish choralari ko'rish bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyat doirasida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish boshlandi;

— shaxsning sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, davlatning sog'liqni saqlash tizimini, tibbiy sug'urtani rivojlantirish choralari ko'rish majburiyati doirasida xospslar tashkil etish, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish boshlandi;

— ta'lim olish konstitutsiyaviy huquqini, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiyani ta'minlash maqsadida oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga byudjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibi takomillashtirildi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish sohasida ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi;

— iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlaridan kelib chiqib, bu boradagi huquqiy mexanizmlar ham sezilarli darajada kuchaytirildi, xususan, litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega 22 ta hujjat hamda 4 ta tartib va talab, tadbirkorlik subyektlaridan talab qilinadigan 8 ta hisobot



va statistika ma'lumoti bekor qilindi, soliqqa oid ayrim huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari maqbullashtirildi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan 2024-yilda konstitutsiyaviy nazorat tartibida 70 ta qonun va 218 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi o'rganilgan.

Konstitutsiyaviy sud axborotida Bosh qonunimizni amalga oshirish bo'yicha qator takliflar ham ilgari surildi.

Birinchiidan, davlat xizmatchilari o'rtasida Konstitutsiya targ'ibotini kuchaytirish, huquqshunoslik yo'nalishida darslik va qo'llanmalarni Konstitutsiya asosida yangilash bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazish.

Ikkinchiidan, "Yangi O'zbekiston — ma'rifiy jamiyat" konsepsiyasi asosida konstitutsiyaviy ta'lim masalasiga alohida e'tibor qaratish, xususan, parlament tomonidan Konstitutsiyani o'qib-o'rganish bo'yicha

**Konstitutsiyaviy sud tomonidan 2024-yilda konstitutsiyaviy nazorat tartibida 70 ta qonun va 218 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi o'rganilgan. Konstitutsiyaviy sud axborotida Bosh qonunimizni amalga oshirish bo'yicha qator takliflar ham ilgari surildi.**

Milliy faoliyat dasturi qabul qilish. Bosh qonunimizni o'rganishni bolalar bog'chasi boshlash, barcha darajadagi ta'lim muassasalari, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, davlat xizmatchilarini ushbu jarayonga to'liq jalb etib, davlat xizmatiga ishg kirishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihonlar o'tkazish tizimini amalda tatbiq etish bo'yicha ishlarni jadallashtirish.

Uchinchiidan, viloyat va Toshkent shahrida kengash raislari va hokimlar boshchilik qiladigan vakillik va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari alohida ajratilgan inobatga olib,

qonunlardagi mahalliy davlat hokimiyati vakolatlariga oid umumiy normalarni hokimlik va mahalliy kengashlar o'rtasida ajratgan holda aniq tahrirda bayon etish.

To'rtinchidan, vazirlik va idoralarning nizomlarini qayta ko'rib chiqib, ularda Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha ushbu tashkilot mas'ul bo'lgan vazifa va funksiyalarini aniq belgilab qo'yishga qaratilgan alohida normalarni belgilash.

Beshinchidan, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunda kam

kafolatlarini hamda ushbu masalada quruvchi tashkilotlar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, renovatsiyaga oid munosabatlarni qonun darajasida tartibga solish.

Yettinchidan, ba'zi hududlarda fermerlar o'zlarini yetishtirgan mahsulotni erkin tasarruf etishda to'sinliklarga uchrashi holatlarini e'tiborga olib, barcha mas'ullardan tovar va xizmatlarning erkin harakatlanishi bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatlariga so'zsiz rioya etish.

Sakkizinchiidan, Konstitutsiyadan kelib chiqib, maxsus qonunlarda xalqaro shartnomalarning yuridik kuchi masalasini aniq tartibga solish, xalqaro shartnomalar normalarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash mexanizmlarini ochib berish, xalqaro shartnomalarni sudlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llash uchun huquqiy va protsessual asoslarni takomillashtirish.

To'qqizinchiidan, tergov sudyasi vakolatlarining qonuniy asoslarini yaratish choralari tezlashtirish.

O'ninchidan, "Davlat boji to'g'risida"gi qonunda boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan davlat boji to'lash masalasi bo'yicha huquqiy bo'shliqni bartaraf etish.

Konstitutsiyaviy sud muhokama qilingan masalani har tomonlama o'rganib chiqib, mutaxassis va ekspertlarning fikr-mulohazalarini hisobga olib, mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborotni tasdiqlash hamda uni Oliy Majlis palatalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborish haqida qaror qabul qiladi.

**Bahor XIDIROVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi.

Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## BUYUK YURTNING BUYUK QOMUSI

O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi sharafiga

Ey ulug' qomusim —  
qutlug' qonunim,  
Elu yurtim sha'ni  
naqsh etilgan kitob!  
Sen —  
mening huquqiy  
dorilfununim,  
Sen —  
qalbm qa'rini  
yoritgan oftob!

Sen borsan —  
toleim,  
kamolim yuksak,  
Ishonch-la boqurman  
porloq ertamga.  
Har qanday minbarda  
men kerib ko'krak,  
baxtim ko'z-ko'z qilsam arzir olamga.

So'zimni hech kim man etolmas,  
Hatto  
yovlar ham yo'lmda bo'la olmas g'ov.  
Asosim:  
haq ishga berganing fatvo,  
Asosim:  
erkinga bo'lganing garov.

Ey huquq olamin ekspertlari!

Qiyoslang,  
qiyoslang  
qomuslar aro

Guvohdir  
Quyosh,  
Oy,  
guvoh  
Yer shari

Qomus yo'q  
bizlarning  
qomusdan a'lo!

Yana bir gap aytgum bo'lsa ham sal to'ng:  
Kun-u tun quyosh-u mohitob o'zing.  
Arshda Haq yaratgan to'rt kitobdan so'ng  
Yerda xalq yaratgan bosh kitob o'zing!

Zavq, quvonch uyg'otmas qay dil qatida  
Yurtimda hayotning barqarorligi?!  
Boisi:  
bizda zo'r kuch sifatida  
anglanar qonunning ustuvorligi.

Kezdim men  
dunyoning ko'p davlatlarini,  
Yurtimga qiyoslab,  
bo'ldim shod, mamnun.  
Bizlarda hattoki yurt sarhadlarini  
qurolmas, himoya qiladi qonun!

Ne-ne xalq,  
ellar haq-huquq g'amin yeb,  
Hamon xor-zor yashar  
ming bor taassuf.  
Shul bois,  
bizlarga ko'z tegmasin deb.  
Rosti gap,  
goh qilgum keladi "suf-kuf".

Yurtdoshlar!  
Biz-chun baxt —  
omad barqaror,  
Yaqindir bundan-da yorqin kelajak!  
Bo'lsa gar shu taxlit Qonun ustuvor,  
Bizning yurt, albatta,  
Buyuk bo'lajak!

Shul bois, dillarda  
jo'shar muttasil  
yuksalish tuyg'usi —  
o'sish tuyg'usi,  
Bunga mard elim va  
sen —  
o'zing kafil  
Ey, buyuk yurtimning  
buyuk qomusi!

Ziyoviddin MANSUR,  
"El-yurt hurmati" ordeni sohibi

# YAXSHILIKDAN TARALGAN NUR

yoxud bir butun xalq,  
yagona vatan bo'lib yashash siri

Nodir MAHMUDOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mamlakatimiz dunyoviy demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab, o'z maqsadi sari og'ishmay dadil odimlamogda. Yangilangan Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan dunyoviy davlat prinsipi turli din va mazhablar o'rtasidagi bag'rikenglikka asoslangan o'zaro tushunib yashash tarzi, din va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy tenglik, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash uchun muhim huquqiy kafolatdir.

O'zbekiston — ko'p millatli mamlakat. Har bir millatning o'z tili, dini, maslaji, qadriyatlari, an'analari bor. Mazkur ma'naviy omillarning amal qilishi millatlararo totuvlikning muhim shartlaridan biri sanaladi. Davlatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan.

Yurtimizda xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etib kelinadigan millatlararo hamjihatlikka davlat yuritayotgan tizimli siyosatning hosilasi sifatida qarash lozim. Ushbu g'oya va umuminsoniy tamoyil yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning tegishli moddalarida ham o'z aksini topdi. Jumladan, Bosh qonunda "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi" degan mezonlar mustahkamlab qo'yildi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlash mamlakatimizning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo munosabatlarni sohasida belgilangan vazifalar doirasida 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Shuningdek, 2019-yil 15-noyabrda Millatlararo munosabatlarni sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi qabul qilinishi millatlararo munosabatlarni va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tardi.

Konsepsiya millatlararo munosabatlarni va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirishga zamin yaratdi. Unga ko'ra, mazkur yo'nalishda yagona davlat siyosatini yuritish, turli millat va elat vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi, ya'ni Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari ko'mitasi tashkil qilindi.

Qo'mita millatlararo totuvlik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlarni madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

2021-yilda mamlakatimizda 30-iyulni Xalqlar do'stligi kuni etib belgilash to'g'risida qonun qabul qilindi. Millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shgan mahalliy va xorijlik hamkorlarning mehnatini munosib taqdirlash maqsadida 2021-yil 1-iyunda "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Hukumatning 2023-yil sentabrdagi qaroriga asosan, ta'sis etilgan "Diniy bag'rikenglik" ko'krak nishoni diniy-ma'rifiy soha samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shgan davlat va jamoat tashkilotlari vakillarini rag'batlantirish imkonini beradi.

Aholining ko'p millatli bo'lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaraladi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda davlatimiz obro'si oshib bormogda.

2018-yilda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston yetakchisi taklifiga asosan, har yili 16-noyabr — Xalqaro bag'rikenglik kuniga bag'ish-



lab yurtimizda o'tkazilayotgan "Bag'rikenglik haftaligi" xalqlar o'rtasidagi do'stlik yanada mustahkamlanishini ta'minlamogda.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi — 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, strategiyadagi maqsadlardan biri jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi tegishli vazifalarni o'z ichiga olgan.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

So'nggi yillarda millatlararo hamjihatlikni ta'minlash borasidagi tashabbuslar asosida noyob tizim yaratilib, yangi O'zbekistondagi tub islohotlar natijasida qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalar qayta tiklanib, azaliy rishtalar mustahkamlanishi xalqimizning xohish-istaklari, orzularini o'zida ifoda etmogda. Bu borada Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarini ushbu hududda yashagan buyuk mutafakkirlarning boy merosini qayta jonlantirish orqali birlashtirishga katta urg'u berilmogda. Bag'rikenglik siyosati O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorligida ham muhim bo'g'in hisoblanadi.

Respublikada yashovchi xalqlarning do'stligini, milliy his-tuyg'ularni, madaniy an'analarni astoydil hurmat qilish asosida ular o'rtasidagi hamjihatlik va ishonchni targ'ib qilish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga har tomonlama ko'maklashish bag'rikenglik tamoyilining yorqin namunasidir.

Tutqich berishni  
istamayotgan tahdid

Millatlararo bag'rikenglik, millatlararo munosabatlarni mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarni qamrab oladi. Ushbu umumshariy qadriyat turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy

taraqqiyotini belgilaydi, tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda turli tahdid va xavf-xatarlar ortishi, geosiyosiy to'qnashuv va noaniqliklar yuzaga kelishi millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasini yanada dolzarblashtirmogda. O'tgan asming 80-yillari oxirida sobiq ittifoq hududi bo'ylab milliy nizolar avj olganini aksariyat o'rta avlod vakillari yaxshi eslash kerak. O'sha paytlari xalqlarni bir-biriga g'ijg'ijlash, ular o'rtasiga nifoq solish, buz'unchilikni maqsad qilgan harakatlar ochiq-oshkora amalga oshirilgan. Kim, qayerda, qanday yo'l tutayotgani barchaga ma'lum edi. Ammo bu harakat shunchalar omamaviy tus oladiki, uni jilovlab bo'lmay qoladi. Shunday g'araz maqsadli kuchlar, niyati buzug'alamis kimsalar hozir yo'q deysizmi. Bor, faqat masalaga yondashuvi, harakat uslublari o'zgaragan.

Bugun ilg'or texnologiyalar ularning quroliga aylangan. Internet, mobil aloqa vositalari orqali uyushtirilayotgan axborot xurujlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali asta ta'sir qiluvchi chiqishlar, inson, xususan, yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan SMS xabar va postlar, bigza demokratiya niqobi ostida tiqishtirilayotgan ilmiy-ommabop, hujjatli va badiiy formatdagi film-seriallar, badiiy asarlar ana o'sha g'arazlikning zamonaviy ko'rinishlaridir. Bu tahdid esa mudom tutqich bermaslik payida. Demokratiya va uning maqsadi o'zi nima, u qanday bo'lishi kerak, degan masala esa alohida mavzu.

Shunday murakkab vaziyatda O'zbekistonda yuritilayotgan siyosat, ogohlik va hushyorlikka chaqiruv, yuqori minbarlardan kuyinchaklik bilan aytilayotgan fikrlar hamda ko'rilayotgan amaliy chora-tadbirlar zamirida xalqimizni turli ofatlardan asrash, millatlararo totuvlikka,

seriallar, shoumenlarning barchana qiliqlariyu tuturqsiz ko'ngilochar shou-dasturlar, bema'ni, yengil-yelpi qo'shiqlar, shoy-shulvi yangiliklar bilan odamlarni o'ziga jalb qilmogda. Ularning aksariyat ko'rsatuvlari inson ongu tafakkuri, ruhiyati, dunyoqarashi, ma'naviyatiga, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi axborot — ma'naviy zahardir.

Mediamahsulot yaratish va tarqatish qoidalarini zamon talablari, hayot voqe'liklari, sog'lom axboriy va ma'naviy muhit yaratish zaruratidan kelib chiqib takomillashtirish, qonunlarimizga tegishli o'zgartirishlar kiritish va bu borada qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish — hayotiy zarurat.

Biz bir butunmiz

Mamlakatimizdagi keng o'lamiy islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turar ekan, fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkinligi tobora ayonlashib boraveradi.

O'zbek zamini istiqomat qilayotgan barcha millat vakillari o'z salohiyatini to'laqonli amalga oshirishi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar belgilangan. Bunda, eng avvalo, fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olingan.

O'zbekiston qadimdan turli millat va din vakillari tinch va erkin yashab, o'z diniy marosimlarini bema'lol bajarayotgan bag'rikeng mamlakat sifatida qadrlanadi. Mamlakatimizda va qadriyatlarimizga ushbu ichkil sijosat xalqimiz, jahon hamjamiyati tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmogda.

Bahor oylarida ko'p qavatli uyimzidagi xonadonlarning biriga yangi qo'shni ko'chib keldi. Kechki payt ishdan qaytayotgan, ko'rinishidan uch-to'rt yollanma yordamchi bilan yuklarini tashib kiritayotgan ekan. Yo'lakka yaqinlashganimda, uhaq qarab odatimizga ko'ra "Hormanglar!" dedim.

— Assalomu alaykum, bor bo'ling, — degan javobni eshitib, taqqa to'xtadim. Negaki millatdoshlarimiz bo'lgan yordamchilar orasida millati koreys ekan ang-lashilib turgan o'zim teng erkinlikning sof o'zbek tilida va qadriyatlarimizga xos tarzda bergan javobidan hayratim ustunlik qiladi.

— Yaxshi joylashib olyapsizlarmi? Siz yangi qo'shni bo'lsangiz kerak? — Ha, rahmat. Nasiba qo'shilgan ekan, mana sizlarga hamsoya bo'lyapmiz. Qo'shni-chilik — ming yilchilik. Aka-uka bo'lib ketamiz hali. Biz 3-qavatga kelyapmiz. Siz qaysi qavatda turasiz?

Bu gaplar endi avvalgisidan ham ortiq kalovlantiradigan darajada edi. "Yoki tashqi ko'rinishi boshqa millatga o'xshaydimi, o'zi o'zbekimmi?", degan o'yi ham zunda xayoldan kechdi. Tanishdik, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi bu yigitning ismi Ayvar ekan, "lekin hamma kabi Anvar deyaverasiz", deb qo'shib qo'ydi.

Anvar salom-aligi joyida, mulozamatlari o'zbekcha bo'lgani uchun qo'shinlar bilan tezda chiqishib ketdi. Hatto uyiga 10 chog'li odam chaqirib, tanishuv marosimi o'tkazdi, dasturxonida qat'iy taklifni ilgari surdi. Masalaning mohiyatini to'liq anglab-anglamay ayrim saytlar, ijtimoiy tarmoq va blogerlar taklif yuzasidan tanqidiy fikrlar, jumladan, "Bu senzura, so'z va ijod erkinligiga tahdid", "Bu ekspertiza axloq pardasi himoyachisimi yoki mediamakon nazoratchisimi?" qabildagi mulohazalarni o'rtaga tashladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etilayotgan video-materiallarni ko'rib, ular g'og'il-qizlarimiz, farzandlarimiz tarbiyasiga qanday ta'sir qilishini o'ylab qolasiz, — deydi Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov. — Shu ma'noda, ijtimoiy tarmoqlarda internet nashrlarda e'lon qilinayotgan materiallarni ma'naviy ekspertizadan o'tkazish to'g'ri bo'ladi. Avtofoalokatlarda ro'y bergan jarayonlar, insonlarning yarimjon bo'lib yotishi, 10 qavatli binodan o'zini tashlab yuborishi, joniga qasd qiladigan yoki o'zini yoki yuboradigan ayollar tasvirlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoshlarimiz va keng jamoatchilikka salbiy ta'sir qiladi. Ularni nazorat qilish kerak. Buning so'z erkinligi bo'g'inishiga hech qanday aloqasi yo'q.

Odamlarimiz davlat telekanallariga qaraganda xususiy telekanallarni ko'proq tomosha qiladi. Ular ba'zan foydali axborot bilan emas, balki badiiy saviyasi past, mazmuni sayoz

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4332.  
39932 nusxada bosildi.  
Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahhir: Malohat Mingboyeva  
Dizaynerlar: Zafar Ro'ziyev,  
Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 01:05 Topshirildi — 01:10